

OVOZ ILMI (FONETIKA)NING QIROAT ILMI BILAN BOG'LIQLIGI

Rahmatov Iqboljon Izzatullo o‘g’li

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

*“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o‘rganish ICESCO” kaferasi tayanch doktoranti*

Annotatsiya: maqolada Qur’on tilovati ilmida tovush, uning xususiyatlari, fonetik ahamiyati va bog’liqlik jihatlari keng tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qur’on, qiroat, tilovat, tovush, ovoz, akkustika.

Inson ovozi va manbai

Ovoz boshqa barcha tovushlar kabi, odatda insonning halqumida hosil bo‘ladigan tebranishlardan kelib chiqadi. Nafas o‘pkalardan chiqayotib halqumdan o‘tadi va u yerda tebranishlarni hosil qiladi. Bu tebranishlar og‘iz yoki burundan chiqib, tashqi havo orqali to‘lqinlar shaklida harakatlanadi va tinglovchi qulog‘iga yetib boradi.

Ko‘pincha ovozning manbai halqumdir, aniqrog‘i halqumdagи ikki ovoz paylaridir. Ana shu ikki payning tebranishlari og‘iz yoki burun orqali chiqib, havo vositasida tarqaladi.

Ovozning darajasi

Inson ovozining darajasi uning yoshi va jinsiga bog‘liq. Bolalar va ayollar erkaklarga qaraganda ingichkaror ovozga ega bo‘lishadi, chunki ularning ovoz bog‘lamalari qisqaroq va yupqaroq bo‘ladi. Bu esa bog‘lamalarning tebranish tezligini oshiradi. Ovoz turi ham shu jihtlarga bog‘liq bo‘lib, uning tilovat san’atidagi o‘ziga xoslik ham shu xususiyatlar bilan turli xil ifodalarni ko‘rsatadi. Bola balog‘atga yetgach, uning ovoz paylari to‘satdan qalinlashadi va cho‘ziladi, bu esa uning ovozini chuqurlashtiradi. Shuning uchun uning ovozi ayollarnikidan ko‘ra erkakning ovoziga oxshash bo‘ladi.

Halqumdagи tebranishlar soni ilmiy tajribalarda quyidagicha aniqlangan.

Ovoz ilmining tarmoqlari

Tilshunoslik sohasida fonetikaning uchta asosiy tarmog‘i paydo bo‘lgan, xususan:

Artikulyatsion fonetika (علم الأصوات النطقية) — fonetikaning bir tarmog‘i bo‘lib, u insonning nutq a’zolari (ya’ni, til, lab, tanglay, halqum, hiqildoq va boshqalar) qanday tovush hosil qilishda ishtirok etishini o‘rganadi. Bu yo‘nalishda asosiy e’tibor tovushlarning hosil bo‘lish jarayoniga — ya’ni artikulyatsiya jarayoniga qaratiladi. Artikulyatsion fonetika:

1. Nutq organlarining tuzilishi va ularning fonetik funksiyalarini;
2. Tovushlar hosil bo‘lishidagi harakatlarni (masalan, tilning oldinga yoki orqaga siljishi, lablarning ochilishi yoki yumilishi);

3.Tovushlarning tabiatи — undoshmi yoki unli, og‘izda yoki burunda hosil bo‘lishi kabi xususiyatlarini o‘rganadi.

2. Akustik fonetika (علم الأصوات الأكoustيكي) — bu fonetikaning tovushlarni fizik jihatdan o‘rganadigan tarmog‘i. U tovush tebranishlari, tebranish chastotasi, energiyasi va havo orqali qanday tarqalishini o‘rganadi. Qulоq tovushni qanday eshitadi va eshituv tizimi qanday ishlaydi — shu jihatlar ham bu yo‘nalishga kiradi. Fizika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani uchun unga "**akustik fonetika**" deyiladi.

3. Tinglash fonetikasi (علم الأصوات السمعي) Bu esa eng zamonaviy fonetika tarmog‘idir. Unda insonning eshitish tizimi, tovushni qanday qabul qilishi, eshitish fiziologiyasi va psixologiyasi chuqur o‘rganiladi. Ba’zi tilshunoslar uni faqat psixologik nuqtai nazardan baholaydi, boshqalari esa eshitish a’zolarining anatomiyasi va tovush tebranishlarini ham o‘z ichiga oladi, shu bois bu yo‘nalishning ba’zi mavzulari akustik fonetika bilan kesishadi.

Til fonetikasi (علم الأصوات اللغوية) — bu bo‘lim nutqdagi tovushlarning qanday hosil bo‘lishini, ularning chiqish o‘rni (مخارج الحروف) va fonetik xossalari o‘rganadi. Masalan: **jahr** (tovushning kuchli chiqishi), **hams** (past tovush), **taraqqiq** (yengil talaffuz), **tarannum** (ohangdorlik) kabi xususiyatlar shu yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tovushlarning fizik tavsifi va ularning talaffuzi ham til fonetikasi doirasiga kiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda bu yo‘nalishga **fonetika (phonetics)** deyiladi. Shuningdek, fonemalar (harflar)ning so‘z ichidagi o‘rni va tovushlardagi o‘zgarishlar (متلا الإدغام، الإبدال، القلب) o‘rganiladi. Bu esa **fonologiya (phonology)** deb ataladi. Fonologiya haqida ayrim tadqiqotchilar shunday deydi: “Fonologiya – bu tovush materialini tizimlashtiruvchi, uni tartib va qonuniyatlarga bo‘ysundiruvchi fandir”. Har bir til so‘zlaridagi tovushlarning fonetik xususiyatlarini o‘rganish – tilshunoslik tadqiqotlarining birinchi bosqichi hisoblanadi.

Ko‘pgina arab tilshunos olimlarning ittifoqiga ko‘ra, arab tili ilmlari Qur’on rivoji davomida u ham chuqur o‘rganila boshlagan. Aslida bu ilmlarning paydo bo‘lishiga sabab ham Qur’on tilovati, uning fonetik xususiyatlari bo‘lgan.

Tilshunos olimlar Qur’ondagi fonetik hodisalarini o‘rganib, ularning sir-asrorlarini kashf qilishga harakat qilishgan. Ba’zida bu hodisalar arab qabilalari lahjalariga nisbat berilgan, ba’zida esa fonetik qonunlarga – masalan, tashil (تسهيل), hamza (همز), idg‘om (إدغام) kabi hodisalarga tayangan holda tushuntirilgan. Ba’zida esa bu farqlar insonning nutq apparati – ya’ni, fonetik muhitning ta’siri bilan izohlangan. O‘rganilgan muhim fonetik hodisalar orasida **imola**, **idg‘om**, va **iqlob** (ya’ni, tovush almashtirish) kabi hodisalarini tilga olish mumkin.

O‘tmishdagi olimlar fonetikani boshqa qoidalarga kirish eshigi sifatida ko‘rishgan: masalan, idg‘om, iqlob, ibdal (o‘zgarishlar) kabi qoidalarni fonetik vositalar orqali tushuntirishgan. Shuning uchun ular tovushlarga nihoyatda e’tibor

bilan yondashishgan. Bu, ayniqsa, Qur'on tilovatini to'g'ri bajarishda juda muhim sanalgan. Qur'oni to'g'ri o'qish uchun harflarning chiqish o'rinalarini, ularning qanday aytilishini, sifatlarini, xususan tafhim (تفہیم), tarqiq (ترقيق), ishmom (إشمام) kabi qoidalarni bilish zarur edi.

Qiroat ilmidagi fonetik xususiyatlarga e'tibor

Tilovat san'ati olimlari, ayniqsa Qur'on qiroatini o'rgatuvchi qori (qurro)lar uchun bu ilmlar zarur bo'lganini ta'kidlagan. Jumladan, ular: Harf sifatlari - (Sifat al-huruf)

1 Hams (الْهَمْس). Yashirin chiqish Havo erkin chiqadi (sokin holda tovush past bo'ladi).

2 Jahr (الْجَهْر). Ochiq, baralla chiqish Havo ushlab qolib, tovush kuch bilan chiqadi.

3 Shidda (الشِّدَّة). Qattiqlik Havo to'silib, to'satdan ochiladi.

4 Raxova (الرَّخْوَة). Yumshoqlik Havo to'xtamay chiqadi.

5 Tvassut (الْتَّوْسُط). O'rtacha o'qish, havo to'liq to'xtamaydi ham, to'silib qolmaydi ham.

6 Iste'lo (الاستِعْلَاء). Talaffuz vaqtida til orqa tomondan ko'tariladi.

7 Istifola (الاستِفْلَال). Pastdan talaffuz tilning orqa qismi ko'tarilmaydi, akincha pastda qoladi.

8 Itboq (الإِطْبَاق). Til tanglayga yopishadi, havo to'silib, bir muddat yug'onlik hosil qiladi.

9 Infitah (الانْفَتَاح). Ochilish, Til tanglaydan uzoq bo'ladi.

10 Qalqala (الْقَلْقَلَة). Ba'zi harflarda qalinlashadi, ba'zilaridan nisbatan ingichkaroq bo'lib, ovoz jarangi tebranish hosil qiladi.

11 Llin (اللَّيْن). Yumshoq tovush Harf alif yoki ya bilan yumshoq chiqadi.

12 Sofir (فِيرَـاـف). Hushtak tovushi kabi "s"ga o'xshash hushtak tovushi chiqadi. Ba'zi olimlar uni ilonning ovoziga qiyoslashadi.

13 Takrir (الثَّكْرِير). Takrorlanish Harf tebranishga moyil (r harfi kabi).

14 Inhirof (الانْحِرَاف). Og'ish. Havo to'g'ri yo'nalishda chiqmaydi, og'adi.

15 Tafashshiy (التَّفَشِي). Tarqalish. Tovush og'iz ichida yoyilishi.

16 Istitola (الاسْتِطَالَة). Uzaytirish. Harf cho'zilib, uzaytirib aytildi.

Arab fonetika ilmining paydo bo'lish sabablarini o'rganarkan, olim Burubah Mahdiy bu ilmga asos bo'lgan sabablardan quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

Arablarining ajamlar bilan aralashuvi

Ajamlarning islomga kirib kelishi turli shakldagi lahnlarining yuzaga chiqishiga bevosita sabab bo'ldi. Ayniqsa, tovush lahni (ya'ni talaffuzdagi xatolik) ajamlarning tillarida ko'p uchradi. Vaqt o'tishi bilan bu lahniy xatolar arablar tilida ham paydo bo'la boshladi. Bu holat arab tiliga kuchli tahdid tug'dirgan bo'lsa, Qur'on uchun

bundan ham kattaroq xavf edi. Eng xavflisi esa – lahn qorilar tilida ko‘zga tashlana boshlagani bo‘ldi.

Ibn Jazariy bu haqda shunday degan: “Qorilar tilida yuzaga kelgan buzilishlarning asosi aynan shu joyda yotadi”. Bu xavfli holat olimlarni htashvishlantirdi: ular arab tili xususiyatlarini saqlab qolish, Qur’on tilini himoya qilish, uni to‘g‘ri va chiroyli o‘qish yo‘lida astoydil izlandi. Ayniqsa, qorilar Qur’on bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganliklari va uni o‘qitishga bag‘ishlangani tufayli bu borada muhim rol o‘ynadilar. Ular Qur’on ohanglari va tovushlari bilan puxta shug‘llandilar.

Masalan, bu masalaning muhimligi va maqomi bois, qori ulamolar quyidagida ittifoq qilganlar:

- Qur’onni to‘g‘ri o‘qiy olmaydigan kishining ortidan namoz o‘qish joiz emas.
- Tajvidsiz va noto‘g‘ri o‘qilgan Qur’onni xatoli deb hisoblashgan.
- Shunday o‘qigan qorilarni “lahnli qori” deb atashgan.

Qiroatlar orasidagi fonetik farqlar

Qur’oni karimning tilovatidagi farqlar avvalboshdan arab lahjalariga borib taqaladi. Muhammad Solim Muhaysin bu haqda shunday deydi:

“Bu farqlarning asosi Rasululloh s.a.vga nozil qilingan yetti harf “السبعةُ أَحْرُفٌ” “saba‘atu ahruf”. Rasululloh s.a.v bu harflar bilan sahobalarga o‘qib berganlar. Har bir sahoba Rasululloh s.a.vdan o‘rganib, boshqacha o‘qish shaklini eslab qolgan, o‘zi eshitganini rivoyat qilgan.” U bir qancha qabilalarni sanab o‘tgan, ularning lahjalari Qur’onda aks etganini ko‘rsatgan. Ammo, chuqurroq qarasak, qiroatlarning to‘g‘ri sanalgan turlari juda ko‘p arab qabilalarining adabiy lahjalarini o‘z ichiga olgan. Shuning uchun u quyidagicha xulosa qiladi: “Men shunga ta’kidlayman: Qur’on qiroatlari arab qabilalarining eng toza, eng fasohatli lahjalarini o‘zida mujassam etgan.”

Qiroat va fonetika ilmi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Qiroatdagi fonetik farqlar arab tilining turli lahjalari va o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan hamda ular arab fonetikasining shakllanishiga katta turtki bo‘lgan.

Bu fonetik farqlar:

- 1.Qiroatdagi ixtiloflarning manbai bo‘lgan;
- 2.Qorining talaffuzdagi aniqligini ta’milagan;
- 3.Arab tilining saqlanib qolishida hal qiluvchi omil bo‘lgan.

Abduh al-Rojihiy bu haqda quyidagicha fikr bildiradi:

“Hindlarda *veda* (muqaddas matnlar) qanday qilib fonetikani chuqur o‘rganishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, arablar orasida Qur’onni o‘qish (tilovat) tilshunoslar va qorilarni tovushlar haqidagi chuqur tadqiqotlarga undadi.” U yana ta’kidlaydiki, bu mulohazaviy tadqiqotlar Abul Asvat ad-Dualiy (r.a.) tomonidan boshlangan. U Qur’onni nuqta qo‘yish orqali harakatlab bergen, bu esa fonetika asosida yozuv va tajvidning shakllanishiga yo‘l ochgan. Balki Qur’oni karim qiroatlarining til hodisalari

bilan boyligi arab qabilalari o‘rtasida keng tarqalgan va arab geografik hududlarida sochilgan qabilalarning o‘ziga xos **lingvistik merosini** o‘rganishda **tadqiqotchilar uchun kuchli turtki** bo‘lgandir. Abul Asvat ad-Dualiyning Qur’onni **nuqtalab belgilashga oid ishlari** — yuqorida keltirilgan so‘zlarida qayd etilganidek — **Qur’on bilan bog‘liq ilk ilmiy ishlardan** hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ibrohim Anis. Al-asvat al-lug’oviyya. – Qohira: Maktaba al-anju al-misriyya, 1971
2. At- Tavoniy. Mafahim fi ilm al- lisan. – Jazoir: Dar al- va’y
3. Kamol Bashar. Ilm al- lug’o al- am.- il al-asvat. – Qohira: Dar al- ma’arif, 1984.
4. Ahmad Muxtar Amr. Dirosat as-sovt al- lug’aviy. - Qohira: 1970.
5. Nadiya Ramazon an-Najjor. Al-Lug’at va anzimatuhha. – Iskandariya: Dar al- vafa’
6. Al- Mahdiy.Zovahir at- tashkil as-sovtiy inda an-nuhhat val-lug’aviyyin al-arab hata nihayat al-qorn as-salis al-hijriy. – Jazoir: 2001-2002
7. Muhammad Salim Muhaysin. Al-qiroat va asaruha fi ulum al-islamiyya. 1-jild.
8. Muhammad Salim Muhaysin. Al-qiroat va asaruha fi ulum al-islamiyya. 1-jild. Qohira: Dar al-ittihad al-g’arbiy, 1984.
9. Qohira: Dar ar- Rayyon lit-turos, 1986.
10. Ali bin Hajar al-Asqaloniy. Fath al-Bariy bisharh sohib al- Buxoriy. 1-jild.
11. Abduhu ar-Rojihiy. Al-Lahajat al-arabiyya val- qiroat al-qur’aniyya.
12. Aleksandriya: Dar al- ma’rifa al-jamia, 1979